



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TIMSS MISOLIDA

Sotiboldiyeva Shoxista

Gulimbayeva Barno

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14785653>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda yoshlar uchun innovatsion ta'lim yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan TIMSS xalqaro baholash dasturi va bu tadqiqotni ishlab chiqish va rivojlantirish tarixi to'g'risida. Bunda TIMSS xalqaro baholash dasturining O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasiga kirib kelishning sabablari aytib o'tiladi va bu tadqiqotning yoshlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: TIMSS, ta'lim sifati matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, baholash tizimlari o'qitish usullari.

Аннотация: В данной статье рассказывается о международной оценочной программе TIMSS и истории развития и развития этого исследования, получившего существенное значение в создании инновационного образования для молодежи в нашей стране. Указаны причины внедрения программы международной оценки TIMSS в сферу образования Республики Узбекистан и показана значимость данного исследования для молодежи.

Ключевые слова: TIMSS, качество образования, математическая и научная грамотность, начальное образование, педагогика, системы оценивания, методы обучения.

Abstract: This article is about the TIMSS international assessment program and the history of the development and development of this research, which has gained significant importance in creating innovative education for young people in our country. The reasons for the introduction of the TIMSS international assessment program into the field of education of the Republic of Uzbekistan are mentioned and the significance of this research for young people is shown.

Key words: TIMSS, quality of education, mathematical and scientific literacy, primary education, pedagogy, assessment systems, teaching methods.

TIMSS- Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. (**ing. TIMSS -Trends in International mathematics and science study**) 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, tadqiqot ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi.

Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, TIMSS (Matematika va Fan bo'yicha Xalqaro Ta'lim Natijalari Tahlili) boshlang'ich sinif o'quvchilarining bilim darajasini baholashda muhim rol o'ynaydi. Bu dasturlar o'quvchilarning ta'lim sifatini ta'minlash va global miqyosda taqqoslash imkonini beradi. O'zbekistonning ta'lim tizimida ham TIMSS dasturiga tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim bosqichini xalqaro tajribalar va andozalar asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu borada muayyan vazifalar qo'yilgan. Ana shunday vazifalardan biri boshlang'ich ta'lim samaradorligini halqaro baholash dasturlari asosida o'rganib borishdan iborat. Mazkur o'rinda boshlang'ich ta'lim samaradorligini baholashda TIMSS xalqaro baholash dasturidan foydalanish masalalari tahliliga e'tiboringizni tortamiz. TIMSS xalqaro baholash dasturi o'zlashtirish jarayonini baholash bo'yicha halqaro uyushmasi tomonidan 1995 yilda ishlab chiqilgan va amalga kiritilgan. Bu xalqaro baholash dasturi har to'rt yilda 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganadi hamda ushbu yo'nalish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqadi. Dasturning asosini quyidagilar tashkil qiladi: - o'quvchilarning bilim olishga intilish darajasi; - o'quvchilarning matematik tafakkur darajasi; - o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi; - o'quvchilarning o'z o'zlashtirgan bilimlaridan



foydalana olish darajasi. Ma'lumki, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida Matematika va tabiiy fanlar (atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik) asoslari o'qitilmoqda. Shu sababli mazkur fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini TIMSS xalqaro baholash dasturidan foydalanib o'rganish amaliy samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi: - ushbu dastur asosida maxsus test tuzish; - test vositasida o'quvchilar guruhini tanlab olish; - tanlab olingan o'quvchilar guruhi o'rtasida testni o'tkazish; - o'tkazilgan test natijalarini tahlil qilib, boshlang'ich sinflarda matematika va tabiiy fanlarni kuchaytirilgan tarzda o'qitish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish. TIMSS xalqaro baholash dasturi o'rganish testlarining bir necha variantda bo'lishini nazarda tutadi.

Testlar quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

- o'quv fanlarining mavzularini to'liq qamrab olishi;
- test ishtirokchi o'quvchilarga tushunarli bo'lishi;
- test savollarining oddiydan murakkabga qarab darajali tuzilishi;
- matematika va tabiiy fanlarning eng asosiy masalalari aks etishi;
- testdan foydalanish ommaviy bo'lishi.

Bu tamoyillar asosida tuzilgan test mazkur xalqaro dastur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, fikrlash va mustaqil xarakter qilish ko'nikmasini aniq aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlari boshlang'ich ta'lim jarayoni o'rganib borilmoqda. Bunda Rossiya Federatsiyasi va Amerika Qo'shma Shtatlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari yetakchi o'rinni tutib kelayotganligini eslatib o'tish joiz. Bu xol mazkur mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim jarayoni zamonaviy talablar asosida tashkil etilganligidan dalolat beradi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va tarbiyalanganlik darajasini o'rganish uchun bir necha tadbirlarni amalga oshirish taqozo etiladi.

Bunday tadbirlarning asosiylari bizningcha, quyidagilardir:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bunday xalqaro baholash dasturlari asoslari bilan tanishtirish;
- pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarida xalqaro baholash dasturlari to'g'risida mashg'ulotlar kiritish;
- xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;
- xalqaro baholash dasturlari bo'yicha boshlang'ich ta'limning samaradorligini o'rganish metodikasini ishlab chiqish.

Bulardan maqsad mamlakatimiz boshlang'ich ta'limini xalqaro tajribalarga mos ravishda rivojlantirib borishdan iborat. Shu sababli keyingi paytlarda biz tomonimizdan bir necha xalqaro baholash dasturlari tahlil qilinganligini eslatib o'tamiz. TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning o'zlashtirish va mustaqil fikrlash darajasini o'rganish uchun quyidagi metodga asoslanish kutilgan samarani beradi:

1) 4-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazish;

2) Mazkur o'quvchilar 8-sinfda o'qiyotganligida o'tkazish.

Bundan maqsad o'quvchilarning o'tgan to'rt yil davomida matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish hamda mustaqil fikrlash darajasining qanday o'sganligini o'rganishdan iborat. Chunki o'quvchilar 5,6,7,8-sinflarda matematika va tabiiy fanlarni asosiy mazmunini o'zlashtiradilar. Shunday qilib TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich ta'lim samaradorligini o'rganish, o'quvchilarning o'zlashtirish va mustaqil fikrlar darajasini aniqlashda muhim asoslarni beradi. Bunday o'rganish natijasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'linadi va ular asosida muayyan tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Natijada mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirib borish asoslari tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSSga tayyorlash, nafaqat saralash jarayoni, balki ularning umumiy bilim darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

O'quvchilarni baholash jarayoniga tayyorlashning asosiy maqsadlari:



1. Bilim darajasini oshirish: O'quvchilarni matematik va fan bilimlari bo'yicha chuqur bilim olishlari uchun tayyorlash.

2. Test ko'nikmalarini rivojlantirish: O'quvchilarni test formatlari va savollar bilan tanishtirish, ularni to'g'ri javob berishga o'rgatish.

3. O'z-o'zini baholash: O'quvchilarga o'z bilimlarini baholash va kamchiliklarini aniqlash imkonini berish.

Tayyorlash usullari:

1. Dars rejalari: O'quvchilarning TIMSSga tayyorgarligi uchun maxsus dars rejalari ishlab chiqilishi zarur. Ushbu rejalarda o'quv materiallari TIMSS standartlariga mos kelishi kerak.

2. Trening sessiyalari: O'quvchilarga test formatlari va savollari bo'yicha treninglar o'tkazish, ularning davomiyligini va samaradorligini oshiradi.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarni o'quvchilarning tayyorgarlik jarayoniga jalb qilish, ularning o'z farzandlariga yordam berishlariga imkon yaratadi.

4. Amaliy mashg'ulotlar: Matematik va fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llashlariga yordam beradi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSSga tayyorlash – bu nafaqat baholash jarayoni, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim asosdir. Ta'lim tizimida sifatni oshirish, o'quvchilarning bilim darajasini ko'tarish va ularni global ta'lim standartlariga moslashtirish orqali, O'zbekistonning ta'limi yanada rivojlanishi mumkin. O'quvchilarni tayyorlash jarayoni davomida barcha ishtirokchilarning hamkorligi va yaxlit yondashuvi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997-son 08.12.2018. <http://lex.uz/docs/4097073>.
2. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi matbuot xizmati.
3. <http://timssandpirls.bc.edu> sayti - TIMSS & PIRLS International Study Center.
4. <http://www.uzedu.uz>-O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb sayti.
5. <http://www.edu.uz>- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vortali.